

Boymurodova Dilfuza

*Buxoroda viloyati shofirkon tumani 1-Maktabning
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi TEL: + 998 99 743 55 45*

O'ZBEK AYOLI

Ko'zidagi nurini – diydam shu bolam deydi
Menga bo'lsin suyagi – go'shtini bolam yeydi
Tosh otmang yuragiga – sajdada xudom deydi
O'zbekning ayolini g'adini xudo yeydi

Mehnatning mashaqqatin qadoq qilgan qo'llarin
Ro'zg'orini kamin yeb ko'p og'ringan dillari
Sog'intirmang jigarlar, yo'lingizda ko'zlari
O'zbekning ayolini g'adini xudo yeydi

To'shang gullar poyiga, qutlug'iga dil hayron
To'lib oqing soyiga- topilmas kibr nishon
Jannatning gultojini tanib oling ey inson
O'zbekning ayolini g'adini xudo yeydi

Birini deng shifokor, yana biri ustozjon
Har sohada ilg'or – u, qo'li shirin bekajon
Shani shahridan qimmat, mo'jizadir ushbu jon
O'zbekning ayolini g'adini xudo yeydi

Bir kichkina aybi bor, jamoliga yo'q shavqat
Oy uyalib osmonga tortib ketdi xijolat
Or biladi nomusni, qilmas yorga xiyonat
O'zbekning ayolini g'adini xudo yeydi

Ko'p yig'latmang yoshiga bilmay toyib ketasiz
Ko'ngliga yo'l topsangiz, qayta suyib ketasiz
Bering so'z demay ko'ngil, bir kun boyib ketasiz
O'zbekning ayolini g'adini xudo yeydi.

